# O'ZBEKISTONDA ISH BILAN TA'MINLASH VA AHOLI BAND BO'LMAGAN STATISTIK KO'RSATKICHLARI

**Xakimov Komiljon**
*Guliston Davlat Universiteti talabasi*

**Alijonov Saidaxmad**
*Guliston Davlat Universiteti talabasi*

**Turayeva Gulizahro**
*Guluston davlat universiteti o'qituvchisi*

***Annotatsiya***: *Maqola materiallari O'zbekistonning 10 yillik aholini ish bilan ta'minlashi to'g'risidagi ma'lumotni o'z ichiga oladi. Ushbu maqola O'zbekiston aholini ish bilan ta'minlash to'g'risidagi malumot prezident huzuridagi Sitatistika agentligi, ish bilan ta'minlash tashkilotlari va 2016-2021 yillarda Mehnat bozorida amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar sharhi orqali statistik va prognoz tayyorlangan*

***Kalit so'zlar:*** *ish bilan ta'minlash, aholi bandligi, mehnat resurslari, ishsizlik, norasmiy mehnat bilan bandlik.*

## Kirish

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadi ish o'rinlarini ko'paytirish va kambag'allikni qisqartirishdir. Bu boradagi manzilli ishlar natijasida o'tgan yilning o'zida kambag'allik darajasi 17 foizdan 14 foizga tushdi. 1 million aholi kasb-hunarga o'qitilib, ish boshlashiga ko'maklashilib, kambag'allikdan olib chiqildi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning tub maqsadi – bu inson farovonligi, uning munosib turmush darajasini ta'minlash hisoblanadi.

## Tahlil va natija

Ish bilan ta'minlash – fuqarolarning mehnat qilish huquqini amalga oshirish shakllaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birgalikda aholini ish bilan ta'minlash davlat bandlik siyosati mazmunini tashkil etadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bandlik siyosati quyidagi yo'nalishlarda ro'yobga chiqarilib bormoqda:

a) kichik va xususiy biznesni rag'batlantirish yo'li orqali o'zini o'zi ish bilan ta'minlashi, qo'shimcha ish o'rinlari yaratish;

b) korxonalarda ish o'rinlari ko'paytirilishi va yangi ish o'rinlari ochilishini qo'llab quvvatlash;

v) kasanachilikni rivojlantirish orqali aholining muhtoj tabaqalarini ish bilan ta'minlash;

g) aholiga maishiy hamda boshqa xizmatlar ko'rsatilishini kengaytirish;

d) yoshlarning yangi kasblarni egallashlariga ko'mak berish. Ish bilan ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjat „Aholini

ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hisoblanadi. Ushbu qonunni 2-moddasiga muvofiq ish bilan ta'minlash fuqarolarning qonun hujjatlariga zid kelmaydigan, o'z shaxsiy hamda ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan, ularga ish haqi keltiradigan faoliyat deb qaraladi.




1–rasm. O'zbekistonda norasmiy mehnat bilan bandlikning 2021-2030 yillardagi maqsadli prognoz parametrlari (ming kishi)

Tahlil natijalariga ko'ra, respublikada 2030 yilga kelib, aholi soni 2020 yilga nisbatan 20,7% yoki 7017,9 ming kishiga, mehnat resurslari 21,9% yoki 4192,1 ming kishiga, ish bilan band aholi 16% yoki 2125,5 kishiga oshishi va norasmiy mehnat bilan bandlar ulushi 20%ga tushishi kutilmoqda. Bu ko'rsatkichlar istiqbollashtirish davrida band aholining yiliga o'rtacha 1,15%dan oshishi va keng qamrovli kompleks tadbirlarni amalga oshirish natijasida norasmiy mehnat bilan bandlar sonining yiliga o'rtacha 5%ga kamayishi natijasida ro'y beradi. (1-rasm).

Norasmiy mehnat bilan bandlik darajasiga iqtisodiy, huquqiy omillar bilan bir qatorda ijtimoiy-demografik omillar ham ta'sir qiladi. O'zbekistonda norasmiy mehnat bilan bandlarning ijtimoiy-demografik holatini tahlili ularning 32,1 foizi – umumiy o'rta, 61,1 foizi – o'rta–maxsus va 6,8 foizini – oliy ma'lumotli shaxslar tashkil qilishi aholining ma'lumot va malaka darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, mehnat bozorida norasmiy mehnat bilan bandlik darajasi mos holda kam bo'lishini ko'rsatmoqda.

**Xulosa**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak ishsizlik, ish bilan ta'minlanganlik darajasi bugungi kunda nafaqat O'zbekiston balki butun jahonda bu global muammo bo'lib bormoqda.Shunday ekan mamlakatimiz buning olidini olshi uchun "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'sida" qonun ishlab chiqdi va qabul qildi. Ushbu Qonun bozor iqtisodiyoti va mulkchilikning turli shakllari teng huquqliligi sharoitida insonning ishli

bo‘lish huquqlarini ro‘yobga chiqarishning tashkiliy, huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlarini belgilab beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati :**


1. Makroiątisodiy tahlil. Maxmudoy N.M, Xakimov H.A. O ‘quv qollanma T.: TDIU, 2019
2. Xudeyberdiev U. X, Xoliqulov A.N, Turdibekov Y.U. . Statiska . O`quy Uslubiy qollanma. Samarqand, SamISI, 2012 0’zbekiston Respublikasining statistic axborotnomasi Yanvar-sentabr 2022-yil
3. Rustamovich, U. S. (2017). Features of innovative water management in the modernization of economy. TRANS Asian Journal of Marketing & Management Research (TAJMMR), 6(1), 45-53.
4. Умаров, С. (2017). Основные направления инновационного развития водного хозяйства и его поддержка. Экономика и инновационные технологии, (1), 43-50.
5. Umarov, S. R. (1992). On the well-posedness of boundary value problems for pseudodifferential equations with analytic symbols. In Doklady Akademii Nauk (Vol. 322, No. 6, pp. 1036-1039). Russian Academy of Sciences.
6. Umarov, S. R. (1993). Some boundary value problems for elliptic equations with a boundary operator of fractional order. In Doklady Akademii Nauk (Vol. 333, No. 6, pp. 708-710). Russian Academy of Sciences.
7. Кароматов, И. Д., & Гулямов, Х. Ж. (2017). Медицинские вопросы, освещенные в Библии. Биология и интегративная медицина, (4), 55-75.
8. Gulyamov, X. (2023). INTER-ETHNICITY IN THE FORMATION OF CIVIL SOCIETY IN UZBEKISTAN HARMONY AND RELIGIOUS TOLERANCE. Interpretation and Researches, 1(12). извлечено от http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/1314
9. Toshtemirova Mokhira Makhmud qizi, & Jurakulova Durdona Shuxratovna. (2023). Parasites of the Oral Cavity. Genius Repository, 25, 19–20. Retrieved from https://www.geniusrepo.net/index.php/1/article/view/176
10. Rakhmonova Bakhora Kakhorovna, Marupova Madina Khikmatullayevna, & Toshtemirova Mokhira Makhmud kizi. (2023). IMPROVING THE SURGICAL METHOD OF SCAR MICROSTOMY. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(9), 300–304. Retrieved from https://www.giirj.com/index.php/giirj/article/view/5572
11. Makhmudovna, T. M., & Makhmadaminovna, K. D. (2023). THE COURSE OF MALFORMATION AND CORNEAL EROSION IN TUBERCULOSIS PATIENTS. Open Access Repository, 4(03), 60-66.
12. Kochkarova, R. R., & Turgunov, E. (2023). IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING CHEMISTRY LESSONS AT SCHOOL WITH THE HELP OF DIFFERENT GAMES. American Journal of Applied Science and Technology, 3(10), 15-19.
13. Xolmurod, S., Saidbek, A., & Qaxxarovna, T. G. (2023). SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI KO’RSATKICHLARINI STATISTIK KUZATISH. Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения, 1(5), 54-56.
14. Qaxxorovna, T. G. (2023). DON ISHLAB CHIQARUVCHI XALQARO TRENDLAR. XALQARO ANIQ FANLAR TAHLILI, 1(2), 19-23.
15. Turayeva, G. (2023). The significance of sustainability of grain production in the consumer basket. In E3S Web of Conferences (Vol. 420, p. 01019). EDP Sciences.